

# Prezident yangi korxonalarning iqtisodiy samaradorligi va ekologik tozaligiga alohida e'tibor qaratdi

// 28.12.2019

<https://uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/navoiyazot-ammiak>



O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatida barpo etilayotgan yangi korxonalar qurilishini borib ko'rdi.

"Navoiyazot" AJ qariyb 9 ming ishchi-muhandis mehnat qiladigan, 70 dan ortiq noyob mahsulot ishlab chiqaradigan ulkan korxonadir. Uni modernizatsiya qilish, quvvatini kengaytirish maqsadida uchta yirik investitsion loyiha rejalashtirilgan edi.

Davlatimiz rahbari shulardan ikkitasi – ammiak va karbamid hamda azot kislotasi ishlab chiqarish korxonalari qurilishini ko'zdan kechirdi.



Birinchi loyihaning umumiyligi qariyb 1 milliard dollar bo'lib, uning samarasida yiliga 660 ming tonna ammiak va 580 ming tonnadan ziyod karbamid olish imkoniyati yaratiladi. 500 ga yaqin ish o'rni paydo

bo'ladi. Korxonani kelgusi yili ishga tushirish, yiliga 136 million dollarlik mahsulot eksport qilish rejalashtirilgan.

Yaponiyaning «Mitsubishi Heavy Industries» va «Mitsubishi Corporation» kompaniyalari konsortsiumi bilan hamkorlikda qurilayotgan yangi korxonada zamonaviy texnologiyalar qo'llanishi evaziga yiliga 735 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejaladi, atmosferaga chiqadigan karbonat angidrid gazlari miqdori ham kamayadi.



Prezidentimiz korxonaning ishchi va muhandislari bilan suhbatlashdi. Bunday ishlab chiqarish quvvatlari mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhimligini, yuqori samaradorligi bilan ko'plab tarmoqlarga, xalqimizga katta manfaat keltirishini ta'kidladi.



«Navoiyazot»da qurilayotgan yana bir yirik korxona – Azot kislotasi ishlab chiqarish majmuasidir. Umumiy qiymati 217 million dollarga teng ushbu ob'ekt Shveytsariyaning “CASALE SA” kompaniyasi bilan hamkorlikda bunyod etilmoqda.

Bu korxona yiliga 500 ming tonna mahsulot tayyorlash quvvatiga ega bo'ladi. Hozirgi kunda uskuna va jihozlar o'rnatilib, qurilish-montaj ishlari yakunlanmoqda. Uni 2020 yil fevral oyida ishga tushirib, mart oyida birinchi mahsulot chiqarilishi rejalashtirilgan.

Shu tariqa 55 yil oldin qurilgan, har tomonlama eskirgan azot kislotasi sexlari foydalanishdan chiqariladi. Eng muhimmi, 1 tonna mahsulot ishlab chiqarish uchun elektr energiyasi sarfi 18 barobar kamayadi, havoni ifloslantiradigan 150 ming tonna miqdoridagi gazlar tutib qolinadi.

Davlatimiz rahbari bu omil Navoiy viloyati ekologiyasi, havo musaffoligi, aholi salomatligi uchun g'oyat muhimligini alohida ta'kidladi.

Aytish joiz, dunyoda bu turdag'i zavodlar faqat ikki davlatda – Frantsiya va Chexiyada mavjud, "Navoiyazot"da barpo etilayotgani uchinchisi hisoblanadi.











Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti